ISSN:2828-6235
Impact factor:13.77

International Journal of Literature and Language Studies(IJLLS)

UO‘K: 81’255.2(=1/=8)+821.512.164-1

SHE’RIY TARJIMA JARAYONIDAGI ESTETIK VA NAZARIY QIYINCHILIKLAR

Sapaeva Feruza Davlatovna –
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Jahon adabiyoti kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (DSc)
Email: feruzasapayeva86@gmail.com.
Orcid ID: 0009-0004-1079-8754
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.24145991

РЕЗЮМЕ. В статье говорится о переводчиках стихов Махтумкули на узбекский язык. В этом статье на примере узбекских переводов стихотворений Махтумкули анализируется мастерство применения слов переводчиков, а также ведется полемика о статусе слова в художественном переводе.

SUMMARY. In this article says about enterpreters of poems of Mahtumkuli in Uzbek language. In this article the translators skills in using words in the process of translating the verses of Makhtumquli are analyzed; the value of word is discussed in belles-lettres translation.

REZYUME. Mazkur maqolada Maxtumquli she’rlarining o‘zbekcha tarjimalaridagi tarjima muammolari talqin qilindi. Xususan, Maxtumquli she’rlarining shakl va mazmun mushtarakligi, tarjimonlarning so‘z qo‘llash mahorati tahlil qilinib, badiiy tarjimada so‘zning mavqei, tusmollab tarjima qilish masalalari xususida bahs yuritiladi.

Ключевые слова: Махтумкули, стихотворение, перевод, туркменский язык, узбекский язык, содержание, смысл, переводчик.

Key words: Mahtumkuli, poem, translation, Turkmen language, Uzbek language, meaning, translator.

Kalit so‘zlar: Maxtumquli, she’r, tarjima, turkman tili, o‘zbek tili, mazmun, ma’no, tarjimon.

Introduction.

Tarjimashunoslikda “tarjimonning soxta do‘stlari”, “yolg‘onchi so‘zlar”, “aldoqchi so‘zlar” nomlari bilan yuritiladigan soxta ekvivalent degan tushuncha mavjud. “Shaklan o‘xshagani bilan ma’nolari bir-biridan jiddiy farq qiladigan so‘zlar soxta ekvivalentlar deb qabul qilingan” (1). Bu tushuncha XIX asr oxirlarida ilk bor tilga olinadi. XX asr boshlarida jiddiy o‘rganila boshladi. Fransuz lug‘atshunoslari M.Kesler va J.Derokini birinchi marta “Inglizcha-fransuzcha tarjimonning aldoqchi do‘stlari” degan lug‘at tuzgan edilar. Keyinchalik bu til hodisasini ifoda etish uchun boshqa terminlar ham paydo bo‘ldi. “Tillararo omonimlar”, “tillararo analogizmlar”, “ohangdosh so‘zlar”, “aldoqchi so‘zlar” va boshqalar shular jumlasidandir (2). O‘zbek tarjimashunosligida ulardan “aldoqchi so‘zlar” termini o‘zlashdi deyish mumkin.

Rus olimi V.V.Akulenko bunday shaklan o‘xshash, lekin mazmunan farqli so‘zlarni “tillararo omonimlar” va “tillararo paronimlar”ga ajratadi (3). Tillararo omonimlarga “shaklan o‘xshash, ammo ma’nolari har xil so‘zlar”, tillararo paronimlarga “so‘zlarning talaffuzdagi tasodifiy o‘xshashligi” (3) kiradi. Tilshunos olimlar M.Taylaqova bilan M.Saparov Maxtumquli she’rlarining Jumaniyoz Sharipov tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarini ayni shu tasnif asosida tekshiradilar (4). Tarjimashunos Z.Isomiddinov ular qatoriga yana “tusmol ekvivalentlar” degan tushunchani qo‘shadi. Olimning yozishicha, yaqin turkiy tillardan “tarjima asarlari matnidagi xato va nuqsonlarning o‘ndan to‘qqiz qismini “soxta ekvivalentlar”ga o‘xshagan, aslida esa – agar shunday atash mumkin bo‘lsa – “tusmol ekvivalentlar” tashkil qiladi” (4). E.Ochilov bu tasnifni ma’qullab, Maxtumquli she’rlari tarjimasi tahliliga bag‘ishlangan maqolasida M.Ahmad tarjimasidan “tusmol ekvivalentlar”ga bir misol ham keltirib o‘tadi (5). Ma’lum bo‘ladiki, soxta ekvivalentlar, paronimlar va tusmol ekvivalentlar mavjud. Albatta, soxta ekvivalentlar, tarjima

muammolari bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan[1]. Jumladan, Maxtumquli she’rlari tarjimasidagi soxta ekvivalentlar ham J.Sharipov tarjimasi misolida o‘rganilgan. J.Sharipov tarjimalarining muvaffaqiyatini ta’minlagan asosiy omil aslida o‘zbek va turkman tillari o‘rtasidagi o‘zaro mushtaraklik hisoblanadi.

Methods. “Ma’lumki, turkman tili turkiy tillarning janubi-g‘arbiy (o‘g‘uz) gruppasiga taalluqli til hisoblanadi. O‘zbek tili esa turkiy tillarning qarluq gruppasiga xos. Bu ikki til vakillari asrlardan beri bir-birlari bilan yonma-yon, bir xil moddiy-madaniy, siyosiy-tarixiy sharoitda yashab kelishgan. Shu sababli ularning tillarida umumturkiy leksik-grammatik xususiyatlar ko‘p uchraydi” (5). Tarjimon ikki til o‘rtasidagi bu imkoniyat va qulayliklardan mahorat bilan foydalangan. Buning ustiga, xorazmlik bo‘lgani, “Xorazm o‘zbeklari tili turkman tiliga boshqa o‘zbek shevalariga nisbatan ancha yaqin”ligi unga yanada qo‘l kelgan. U amalga oshirgan ko‘pchilik tarjimalarning asliyatga monand jaranglashi shundan. Lekin o‘zbek va turkman tillarining “o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjudki, bu xususiyatlar badiiy asar tarjima qilinayotgan vaqtda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki yaqin tillar lug‘at boyligida shaklan bir xil, mazmunan ɔsa yiroq, hatto butkul boshqa ma’no anglatuvchi so‘zlar ham anchagina bor. Mazkur so‘zlar tekstni o‘girish davomida tarjimonni yanglishtiradi va asl nusxa matnidan tarjimaga ko‘chib o‘tishi mumkin. Bunda ɔsa tarjima muqarrar buziladi, chunki mutarjimni yanglishtirib tarjima tekstiga kirib qolgan so‘z originaldagi vazifani tarjimada bajarmasligi ustiga, noo‘rin qo‘llanganligini boisdan mantiqiy uzviylik hamda badiiy mukammallikka putur yetkazadi” (5). J.Sharipovni, asosan ana shu shaklan o‘xshash, ammo mazmunan bir-biriga zid so‘zlar – soxta ekvivalentlar chalg‘itgan: u tarjimalarida yo‘l qo‘ygan xato-kamchiliklarning katta qismi shunday “aldoqchi so‘zlar” hissasiga to‘g‘ri keladi.

Results and Discussion – IMRAD. O‘zbek va turkman tillaridagi shaklan o‘xshash, ammo mazmunan turli ma’nolarni anglatgan leksik birliklar tarjimonni ko‘p o‘rinlarda chalg‘itadi. Tarjimon Maxtumquli asarlarini o‘zbek tiliga ag‘darar ekan, turkiy tillar guruhiga mansub bo‘lgan o‘zbek va turkman tillarinnig mushtarak tomonlariga (fonetik-morfologik, leksik xususiyatlari) ko‘proq tayanib, ko‘p miqdordagi so‘zlarning shakldagi o‘xshashligiga asoslanib, so‘zma-so‘z tarjimaga zo‘r bergan. Natijada shoir she’rlarining ma’nosiga putur yetgan.

Ma’lumki, turkiy tillarda “qo‘l” so‘zi “el”, “al” tarzida ishlatiladi. Lekin “al” turkman tilida ko‘p ma’noli bo‘lib, 1) hiyla, makr, 2) och qizil rang, 3) jin, ajina, yovuz ruh kabi ma’nolarda qo‘llanadi. “Qo‘l” so‘zi esa “el” shaklida yoziladi. J.Sharipov makr-hiyla ma’nosidagi “al” so‘zini “Chilim” she’ri tarjimasida “qo‘l” deb tushunadi: “Ал билен алдап сени хер дем өзиге зар эдер” – “Qo‘l bilan aldab seni, har dam o‘ziga zor etar” . Bu xatoning kelib chiqish sababini M.Taylaqova va M.Saparovlar shunday izohlaydilar: “Xorazmda o‘zbek adabiy tilidagi “qo‘l” so‘zini “al” so‘zi bilan ifoda etiladi. Xorazmcha “al” turkman tilida “el” orqali ifodalanadi. Tarjimon xorazm shevasidagi “al”ga o‘xshash bo‘lgan turkmancha “al” ni “qo‘l” deb noto‘g‘ri

[1] Рыльский М.Ф. Художественный перевод с одного славянского языка на другой. – М.:1958; Акуленко В.В. О ложных друзьях переводчика // Англо-русский и русско-английский словарь “ложных друзей переводчика”. М.:Советская энциклопедия, 1968. – С. 371-384; Бозоров М. Проблемы перевода лексических параллелизмов и ложных эквивалентов. АКД: Т, 1982; Исомиддинов З. “Алдоқчи сўзлар” билан баҳс. – Б. 154-174; Тайлақова М., Сапаров М. Махтумқули асарлари тилининг ўзбекча таржимасига баъзи бир қайдлар. – Б. 46-53; Юсупов Ж. Туркий тиллардан таржима қилиш хусусида // Адабиётшуносликка оид тадқиқотлар. – Т.: 1978. – Б. 150-160; Қурамбоев К. Махтумқули шеърияти Ўзбекистонда. – Б. 52-60. К.Ю.Ташанов. Миллий характер ва таржима. – Т.: Фан ва технология, 2015. Сапаева Ф.Д. Таржимашунослик: матн ва маҳорат. – Т.: Чўлпон, 2016. Сапаева Ф.Д. Махтумқули асарлари таржимасининг қиёсий таҳлили. – Т.: Тафаккур авлоди, 2020.

o‘qiydi va Maxtumquli aytmoqchi bo‘lgan fikrni buzib tarjima qiladi. Shakliy o‘xshashlik tarjimonga pand bergan” (5). O‘z navbatida, turkman tilidagi “el” so‘zi o‘zbek tilida – “xalq, yurt” ma’nosida keladi. Binobarin, bu so‘zni aynan qoldirish o‘zini oqlamaydi: “Нәгәх худайым эл тутар” – “Nogoh Xudoyim эl tutar”.

“Ko‘rinar” she’ri tarjimasida J.Sharipov “гаррып” – “qarib” so‘zini “g‘arib” deb adashadi:

Maxtumqulida:

Серинден думани гитмез,
Эйям гечип, ере батмас,
Гаррып галмаз, өлмез, йитмез,
Горганлы даглар, гөрүнер.

J.Sharipov:

Boshidan tumani ketmas,
Ayyom o‘tib, yerga botmas,
G‘arib qolmas, o‘lmas-yitmas,
Qo‘rg‘onli tog‘lar ko‘rinar.

“Deydi: “Xabar yo‘q sizdan” she’ri tarjimasida M.Kenjabek shunday xatoga yo‘l qo‘ygan: “Дийди: “Гаррып чөкесен” – “Dedi: “G‘arib, cho‘karsan”. Holbuki, bu yerda “qarib cho‘karsan” bo‘lishi kerak. Chunki turkman tilida “qarimoq” bilan bog‘liq so‘zlar ikki “r” harfi bilan yoziladi: “гарры”, “гаррылык”, “g‘arib” so‘zi esa bitta “r” bilan: “гарып”. M.Ahmad bu iborani to‘g‘ri tarjima qilgan: “Dedi: “Qarrib cho‘karsan”. Lekin uning turkmanchaga taqlidan ikkita “r” ishlatishi noto‘g‘ri.

Turkman tilida “yoz” so‘zi “bahor” ma’nosida keladi, yozning o‘zi esa tomus deyiladi. Lekin Maxtumquli tarjimonlarining barchasi bu so‘zning ma’nosi ustida o‘ylab ham o‘tirmay, o‘zini qo‘llab ketaveradilar. Holbuki, E. Ochilov to‘g‘ri yozganidek, “Йигитлик – эгленмез яздыр” misrasini M.Ahmad kabi “Yigitlik to‘xtamas yozdir” deb emas, balki “Yigitlik – qaytmas bahordir” deb tarjima qilish kerak” (4).

Chunki yoshlik bahorga qiyoslanadi, yoz – o‘rta yoshlikka to‘g‘ri keladi. Binobarin, J.Sharipov tarjimasida “Магтымгулы, йигитлик бир яз гөрнер” misrasining “Maxtumquli, yoshlik bir yoz ko‘rinar”, – deb o‘girilgani, to‘g‘rirog‘i, “yoz”ning aynan o‘tkazilgani shoir fikrining o‘zgarishi – buzilishiga sabab bo‘lgan. Ayni xato A.Jumayev va J.Zulpiyevlar tarjimasida ham takrorlangan: “Maxtumquli, yigitlik bir yoz kabi”. Mana bu misra tarjimasida ham “yoz”ning aynan qoldirilishi o‘zini oqlamagan: “Чахар пасла башдыр яз” – “To‘rt faslga boshdir yoz”. Yilning boshi – bahor, binobarin, barcha, fasllarning boshi ham u. J.Sharipov yana “Нейсансыз, небатсыз ниче язлар бар” misrasini “Yomg‘ursiz, giyohsiz necha yozlar bor” deb tarjima qiladi. Mantiq esa bu yerda yozni yemas, bahorni taqozo qilayapti: yomg‘ir yog‘is’hi ham, giyoh ko‘karishi ham bahorga xos. Qolaversa, bu yerda nayson tilga olinayaptiki, u “suryoniy taqvimi bo‘yicha aprel oyiga to‘g‘ri keladigan 4-oy nomi”. Demak, nayson – o‘rta bahorda, aprel oyida yog‘adigan yomg‘ir.

Maxtumqulida:

Бахарда ашылан реңбе-рең гүллер,
Бир пасыл ашылар – яза мыхмандыр.

J.Sharipov tarjimasi:

Bahorda ochilgan rang-barang gullar
Bir fasl ochilar, yozga mehmondir.

O‘z-o‘zidan savol tug‘iladi: “Nega yendi bahorda ochilgan gul yozga mehmon bo‘lar ekan?” U yozgacha boradimi-yo‘qmi?

Bahorda ochilgan gul bahorga mehmon-da.

Asl nusxada baxar va yaz bir faslning ikki xil nomi. Tarjimada esa bahor va yoz boshqa-boshqa fasl nomlari bo‘lib qolgan.

Albatta, tarjima qonuniyatlari muayyan so‘zga yopishib olishni, uni aynan tarjima tiliga o‘tkazishni talab qilavermaydi, zarur holatlarda yon berishlar, chetga chiqishlarga ham yo‘l qo‘yadi. Jumladan, she’riy tarjimada vazn va qofiya talabi bilan ba’zida so‘zlar o‘zgartiriladi, faqat ma’noning oyog‘ini osmondan keltirmasa bas.

Yana so‘z urg‘usi bor, ma’no urg‘usi bor. Urg‘u so‘zga tushsa, uni tarjimada ham albatta aks ettirish kerak. Lekin urg‘u ma’noga tushsa, asosiy e’tiborni ma’noni chiqarishga qaratib, so‘zni o‘zgartirish, ba’zida hatto tushirib qoldirish mumkin.

Demak, aynan bahor emas, umuman, fasllarning biri ma’nosida kelsa, yozni yoz deb ham tarjima qilsa, xato bo‘lmaydi. Lekin konkret faslni ifodalab kelganda, uni aslicha qoldirish ma’noning o‘zgarishi yoki buzilishiga sabab bo‘ladi.

Ma’lumki, “gap” ma’nosidagi “so’z” bor, fors-tojikchadan kirgan “yonish-kuyish” ma’nosidagi “so‘z” bor. Turkman tilida birinchisi – сөз, ikkinchisi – “соз” shaklida yoziladi. Lekin tarjimonlar ko‘pda buni farqlab o‘tirmaydilar, asosan, “gap, nutq” ma’nosidagi “so‘z” deb tushunadilar. Misol uchun, J.Sharipov “Соран болса, сынам ичре сузлар бар” misrasini “So‘rar bo‘lsa, siynam ichra so‘zlar bor” deb tarjima qiladi. Aslida “So‘rar bo‘lsa, siynam ichra o‘tlar bor” deb tarjima qilish kerak edi. M.Ahmad esa “so‘z” ma’nosidagi “sөz”ni “soz” (musiqa asbobi) deb talqin qiladiki, “soz” turkmanchada “saz” shaklida yoziladi: “Ҷошар сен, хер сөзи пейда едер сен” – “Jo‘sharsan, har sozni paydo etarsan”. M.Kenjabek esa “yonish-kuyish” ma’nosidagi “suz” so‘zini “so‘z tarzida berib, matn osti havolasida izoh beradi.

Turkmanchada “хатыра” – hurmat, obro‘-e’tibor, shon-sharaf ma’nolarini bildiradi. Bundan bexabar M.Kenjabek uni “xotir” deb oladi. Natijada asliyat mazmuni buziladi: “Гачар аган, иниң, болмаз хатыраң” misrasining mazmuni “Og‘a-ining qochar, hurmating qolmas” bo‘lib, uni “Qochar og‘ang, ining, bo‘lmas xotiring” deb tarjima qiladiki, bundan “Og‘a-ining sendan qochib, es-hushingni yo‘qotasan” degan ma’no kelib chiqadi. Ushbu misrani J.Sharipov ham (“Qochar og‘a-ining, bo‘lmas xotirang”, A.Jumayev va J.Zulpiyevlar ham shunday tarjima qilishgan (“Qochar og‘a-ining, bo‘lmas xotiring”. Ma’lum bo‘ladiki, uchala tarjima ham asliyatga muvofiq emas va to‘rtinchi tarjimaga ehtiyoj mavjud.

“Гөрумсиз” – turkman tilida “yaxshi tarbiya ko‘rmagan, odobsiz” degani. Binobarin, uni muvofiq tarzda “ko‘rimsiz” tarzida tarjimaga o‘tkazish xato. Chunki “ko‘rimsiz” – o‘zbek tilida “xunuk, ko‘rksiz, qaddi-qomati, savlati, ko‘rinishi yo‘q” demakdir. M.Ahmad yesa bu so‘zni o‘zbekchaga aynan o‘tkazib qo‘ya qoladiki, bu bilan asliyat ma’nosi o‘zgarib ketadi:

Maxtumqulida:
Йыгнан йыгынсҳагың бары күл болды,
“Герүмсиз, гысык” ат галды өзүңден.
M.Ahmad:
Yiqqan tugunchaging bari kul bo‘ldi,
Ko‘rimsiz yomon ot qoldi o‘zingdan.

Bu yerda “гысык” so‘zi ham “yomon” emas, balki “baxil, ziqna, xasis” ma’nosini bildiradi. “Уыгынchak” esa “tugunchak” emas, umuman, yiqqan-tergan, mol-mulk ma’nosida. Demak, qo‘shmisraning mazmuni quyidagicha: “Yiqqan-terganlaringning barchasi kul bo‘ldi, o‘zingdan esa yomon va baxil degan nom qoldi”.

Maxtumquli va Zunubiy savol-javobi asosiga qurilgan “Xabar ber – shundaydir” she’ri tarjimasida “bezak, gavhar” ma’nosidagi “berre” so‘zini “barra” deb olib, unga uzundan-uzoq noto‘g‘ri izoh beradi: “1) qo‘y va ohu bolasi; 2) hamal burji, hamal – quyoshning sharaf maqomi, quyosh hamal maqomida bo‘lganida bahor boshlanadi”. Holbuki, Maxtumqulining “U ne sandig‘u uning mashhur gavhari nima?” degan savoliga Zunubiy: “U sandiqning oti ko‘ngilu u gavharning oti iymon” deb javob bermoqda. Maxtumquli:

– Не хукгадыр, не берредир ҷехары...
– Көңүл хукгасында берра имандыр...

– Ne huqqadir, ne barradir jihori?..
– Ko'ngil huqqasinda barra iymondir.

Bundan "Ko'ngil huqqasidagi qo'zi yoki burji iymondir" degan ma'no kelib chiqadi. To'g'risini aytganda, bu misralar tarjima qilinmagan, deyarli aynan o'tkazilgan: huqqa, barra, jihori so'zlaridan birortasi hozirgi o'quvchiga tushunarli emas. Bu yerda h u q q a – sadaf, sandiq, b a r r a – gavhar, j i h a r i – mashhur, ko'rinib turgan ma'nosida kelayapti.

Ko'plab so'zlarning imlosi – turkman tilida qanday yozilishini bilmasliklarining o'zi tarjimonlarning turkman tilini haminqadar bilishlarini ko'rsatib turibdi. Aytaylik, "ko'z" so'zi turkman tilida "gөz" shaklida yoziladi. "Kөz" yesa "ko'mir, cho'g', qo'r" demakdir. A.Jumayevdan boshqa barcha tarjimonlar "kөz" so'zini "ko'z" deb o'girib ketaveradilar. Jumladan, J.Sharipov "Хер йүрекде ышкдан көз хем болмаса" misrasini "Har yurakda ishqdan ko'z ham bo'lmasa" deb tarjima qiladi. Holbuki, "Har yurakda ishqdan cho'g' ham bo'lmasa" deb o'zbekchalashtirsa, asliyatga muvofiq bo'lar edi. A.Jumayev va J.Zulpiyevlar qofiya talabi bilan "ko'z" so'zini aynan olib, farqlash uchun "'" belgisini orttiradilar (ko'z) va matn osti havolasida izoh beradilar: "Har yurakda ishqdan ko'z ham bo'lmasa". Bu hol ham o'zini oqlamagan, boshqa bir yo'l topish kerak. Quyidagi ikki misra tarjimasida yesa M.Kenjabek ikki so'zda xato qilgan: 1) "көз" so'zini "ko'z" deb tushungan; 2) "ki nar" – "ki o't" iborasini yesa "tano'r" (tandir) deb talqin qiladi:

Maxtumquli: Дашдан пишдим, ичден көйдүм, көз болдум,
Ки нар кайсы, кебап кайсы, билмедим.
M.Kenjabek: Tashdan pishdim, ichdan kuydim, ko'z (?) bo'ldim,
Tano'r qaysi, kabob qaysi, bilmadim.

Mazmuni: "Tashdan pishdim, ichdan kuydim, o't-alanga bo'ldimki, o't qaysiyu kabob qaysi bilmadim".

J.Sharipov tarjimasi esa yanada "antiqa": u "көз" so'zini "gang" (?) deb oladi-yu, "ki nar" iborasini "kabobpaz"(?) deb talqin etadi:

Tishdan pishdim, ichdan kuydim, gang bo'ldim,
Kim kabobpaz(?), kabob qaysi, bilmadim.

E.Ochilov ham ayni shunday tarjima qilgan:

Tashdan pishdim, ichdan kuydim, ko'z bo'ldim,
Tandir qaysi, kabob qaysi bilmadim.

Ko'rinib turibdiki, uchala tarjima ham asliyatga muvofiq emas va to'rtinchi tarjimaga ehtiyoj mavjud.

Turkman tilida "ой" so'zi – "oy", "uy" so'zi – "өй" shaklida yoziladi. Tarjimonlarimiz ba'zida mazkur so'zlarni ham farqlamaydilar. Chunonchi, "Бирев ятыр, өйден жепа тартмайин" misrasini M.Kenjabek "Birov yotar o'ydan jafo totmayin" deb tarjima qiladi – bunda "uyda yotish" "o'y surib yotish"ga aylangan. M.Ahmad uni to'g'ri tarjima qilgan: "Birov uyda yotar jafo tortmayin" .

Turkman tilini Maxtumqulining boshqa tarjimonlaridan ko'ra yaxshiroq bilishsa-da, A.Jumayev va J.Zulpiyevlar tarjimasida ham shunday qusurlar uchrab turadi. Jumladan, "Yoylari bordir" she'ri tarjimasida ular ham "uy" bilan "o'y"ni yanglishtiradilar:

Maxtumqulida:
Этмишиң көп болса, ер сени гысар,
Сүңңүң лерзан урар, йүрегиң товсар,
Сагындан-солундан от-ялын өсер,
Бинамазың шундаг өйлери бардыр.
A.Jumayev va J.Zulpiyevlar tarjimasida:
Qilmis'hing ko'p bo'lsa, yer seni qisar,
So'ngoking qaqs'has'hib, yuraging siqar,

O’ngingnan, chapingnan o’t-yolqin yesar,
Benamozning s’hundoq o’ylari bordir.

Bu yerda benamoz bandaning qabrdagi ahvoli – yer ostidagi uyi haqida so‘z bormoqda, zinhor uning o‘y-fikrlari haqida yemas.

Xulosa. Soxta ekvivalentlar tarjimasi borasida Maxtumquli tarjimonlari shunchalik ko‘p xato-nuqsonlarga yo‘l qo‘yganlarki, beixtiyor “Ular tarjimaga jiddiy yondashganlarmi, mas’uliyat bilan qaraganlarmi o‘zi?” degan haqli savol tug‘iladi. Til bilmaganliklari, lug‘at ko‘rmaganliklari-ku mayli, agar tajriba va farosat bo‘lganida mazkur xatolarning ko’pchiligini hatto intuitsiya bilan ham bartaraf etsa bo‘lar edi. Ko‘pchilik tarjimashunoslarning fikricha, soxta ekvivalentlarni farqlay olmaslik tarjimonlarning asliyat tilini bilmasliklari bilan izohlanadiki, keltirilgan tahlillar bu fikrni yana bir karra isbotlaydi.

Adabiyotlar:

1. Магтымгулы. Шыгырлар. Үч томлук. 1-том. – Ашгабат: Түркменистан, 1992. (kirill yozuvidagi nashr)
2. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Т.: Фан, 1966. – Б. 277.
3. Berdak Yusuf. Őnsőz // Turkcha-o‘zbekcha “aldoqchi” so‘zlar lug‘ati. – T.: Voris-nashriyot, 2009. – S. 5.
4. Акуленко В.В. О ложных друзях переводчика // Англо-русский и русско-английский словаръ “ложных друзей переводчика”. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – С. 371-372.
5. Очилов Э. Махтумқули шеърларининг янги таржимаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2010. – № 4. – 110-112 б.
6. Тайлақова М., Сапаров М. Махтумқули асарлари тилининг ўзбекча таржимасига баъзи бир қайдлар // Ўзбек филологияси масалалари (Илмий асарлар тўплами). – Т.: Фан, 1990. – 46-53 б.
7. Исомиддинов З. “Алдоқчи сўзлар” билан баҳс // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 5-к. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1980. – 154-174 б.